

TINCHLIK VA QO'LLAB-QUVVATLASH LOYIHASI: ABDULLA QODIRIY MAHALLASIGA TASHRIF



2022-yil 12-aprel kuni Roman-german filologiyasi fakulteti o‘qituvchilari Z.Xodjiyeva va S.Fozilovalar mehrmuruvvatli talabalar guruhi bilan birgalikda Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi Abdulla Qodiriy mahallasiga muhim tashrif buyurishdi. Bu tashrif “Tinchlik va qo‘llab-quvvatlash loyihasi” deb nomlangan ajoyib tashabbusning bir qismi bo‘ldi.

Ushbu ezgu tashabbus doirasida tadbir ishtirokchilarini mazkur mahallada istiqomat qilayotgan kam ta’minlangan oilalarni yanada yaxshiroq tushunish va ularga yordam berish maqsadida yig‘ildi. Og‘ir hayotiy sharoitga tushib qolgan oilalar, ularga qanday ko‘mak kerakligi haqida chuqurroq bilish maqsadida mikrotuman raisi bilan uchrashdik.

Mazkur loyiha fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy muhitni yaxshilashda faol ishtirok etishning ajoyib namunasidir. Buadolatli jamiyatni yaratishga va universitet va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga hissa qo’shamdi. Ushbu tashabbus



ishtirokchilarini muhtojlarga g‘amxo‘rlik qilish va qo‘llab-quvvatlash kam ta’minlangan oilalar hayotida haqiqiy ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligini tushunadi va buning amalga oshishi uchun qo‘llaridan kelgan barcha ishni qilishga bel bog‘laydilar.

